

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

CURRENT ISSUES OF APPLICATION OF INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN ECONOMIC COURTS

Sharipov Elbrus Qarshi o'g'li

During the years of independent democratic development, our country joined a number of international conventions, agreements and documents related to human rights and became an active participant in them. Currently, the Republic of Uzbekistan, as an equal subject of the international community, is directly acceded to more than 80 universal and regional international treaties on human rights, including 6 basic UN treaties and 4 optional protocols. In this regard, the strengthening of the principle of the primacy of international law norms in the Constitution and laws of the Republic of Uzbekistan created the basis for the effective and effective legal relationship between international law and the national legal system.

Xalqaro huquq normalarini iqtisodiy sudlarda qo'llashning dolzarb masalalari

Sharipov Elbrus Qarshi o'g'li

Mustaqil demokratik taraqqiyot yillarida mamlakatimiz inson huquqlariga oid qator xalqaro konvensiyalar, shartnomalar va hujjatlarga qo'shilib, ularning faol ishtirokchisiga aylandi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning teng huquqli sub'ekti sifatida bevosita inson huquqlariga oid 80 dan ortiq universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalar, shu jumladan BMTning 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida xalqaro huquq normalari ustuvorligi printsipining mustahkamlanganligi xalqaro huquq va milliy huquqiy tizimning o'zaro samarali va ta'sirchan huquqiy aloqasiga zamin yaratdi.

Ammo, xalqaro huquq normalarining ustuvorligi, ahamiyati va rivoji uning muayyan mamlakat milliy huquq tizimida tutgan o'rni, unga bo'lgan munosabati bilangina emas, davlat organlari, avvalombor, sudlar faoliyatida bevosita qo'llanilishi bilan ham bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoev Shavkat Miromonovich ta'kidlaganlaridek "Adolat bu – davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallaydi" ¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ma'ruzalaridan iqtiboslar// Sudya ma'naviyati, odobi, va mas'uliyati. – T "Muharrir nashriyoti", 2021. – B.7

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

Shunga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-huquqiy hayotini demokratlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida sudlar faoliyatida nafaqat milliy qonunchilikni, balki xalqaro huquq normalarini qo'llash amaliyotini takomillashtirish sud-huquq tizimi islohotlarining asosiy yo'nalişlaridan biri bo'lib qolmoqda. Holbuki, xalqaro huquq normalarini sudlarda qo'llashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda sud'yalarning xalqaro-huquqiy savodxonligini oshirish masalalari bir qator xalqaro hujjatlarda ham alohida qayd etilgan.

Jumladan, BMT tashabbusi bilan 2002 yilning 19 avgustida Janubiy Afrikada o'tkazilgan jahon sudyalarining xalqaro konferensiyasi ham aynan shu masalaga bag'ishlanib, unda "Huquqning ustuvorligi va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Yohannesburg prinsiplari qabul qilingan. Ushbu hujjatda ta'kidlanishicha, "milliy, mintaqaviy yoki universal darajada odil sudlovni olib boruvchilar xalqaro va milliy huquqning o'zaro mosligini, implementatsiyasini hamda ijro etilishini ta'minlashda hal qiluvchi o'rinda turadi. Sudyalar milliy huquq doirasida xalqaro shartnomalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llashga o'tishlari lozim". yil 19 mayda qabul qilingan "Sudyalarning xulq-atvoriga oid" Bangalor printsiplarida belgilanishicha, "sudya inson huquqlari bo'yicha normalar mustahkamlangan xalqaro qonunchilikdan, xususan xalqaro konvensiyalar va boshqa hujjatlardagi o'zgarishlardan doimo xabardor bo'lishi kerak".

Yangi O'zbekiston sudyalarining ma'naviy fazilatlari, ma'rifiy qarashlari, odob-axloqi, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatiga oid muhim mezonlardan biri - ularning qonuniylik va adolatni qaror toptirishda xalqaro huquq normalariga qanchalik asoslanishi bilan ham belgilanadi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Adolat bu - davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallaydi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 iyunda Prezident farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi tasdiqlangan va izchil amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu milliy strategiyada O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning mazmuni to'g'risida aholi hamda davlat organlari hodimlarining xabardorligini oshirish belgilangan. Keying asosiy vazifa yetib, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan xalqaro huquqning umume'tirof yetilgan prinsiplar va xalqaro normalar va O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari normalari qo'llash amaliyotini yanada kengaytirish kerakligi belgilangan,

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

Xalqaro huquq normalari haqida gapiradigan bo'lsak xalqaro huquq subyektlarining bitimi asosida tuziladigan rasmiy qoida bo'lib, ushbu subyektlarning huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi. Shu asnoda xalqaro huquq normalarini negizini shu normani yaratishning yagona usuli hisoblangan subyektlar bitimi ya'ni xalqaro huquq subyektlarining kelishilgan irodasini ifodalash jarayoni tashkil qiladi.

Xalqaro huquq normalarining mazmuni davlatlarga va xalqaro huquqning boshqa subyektlariga tegishli huquq va majburiyatlar majmuyi hisoblanadi. Xalqaro huquq subyektlari o'zaro munosabatga kirishganda, xalqaro huquqiy normalarda belgilangan o'z huquqlaridan foydalanadi va majburiyatlarini bajaradi. Shu bilan birga, inson huquqlari sohasida uzoq muddatli strategiyaning qabul qilinishi ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'si yanada mustahkamlanishiga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy-huquqiy reyting hamda indekslardagi mavqeい yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmini yanada takomillashtirish, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ijrosini ta'minlash shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni samarali va o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida:

- xalqaro tashkilotlarning inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha tavsiyalarini amalga oshirishga qaratilgan milliy harakat rejalari («yo'l xaritalari»)ning so'zsiz bajarilishini ta'minlash;
- qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali BMTning inson huquqlari bo'yicha ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalarini bajarishga to'sqinlik qilayotgan sabab va sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish hamda bartaraf etish; kabi vazifalar belgilandi .

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq va Virtual qabulxonalari, shuningdek, Bosh vazirning Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha qabulxonalari alohida o'rinn egallamoqda.

Sud-huquq sohasini yanada demokratlashtirish, Konstitutsiya ustuvorligi, qonun oldida tenglik, insonparvarlik,adolatlilik, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, sud jarayonida tortishuv tamoyillarini tatbiq etish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, «Xabeas korpus» institutini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui qabul qilindi.

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda, nizolarni sudgacha hal qilishda va taraflarni yarashtirishda advokatlarning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirilmoqda.

Sudlarda ishlarni ko'rib chiqishdaadolatni, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun «Elektron odil sudlov» tizimi joriy etildi. Aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimi, shuningdek, Advice.uz huquqiy ma'lumotlar tizimining imkoniyatlarini kengaytirish hamda fuqarolarga bepul huquqiy maslahatlar xizmatini ko'rsatuvchi «Madad» nodavlat notijorat tashkilotini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi.

Ma'muriy, jinoiy, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya qonunchiligi takomillashtirib borilmoqda hamda insonparvarlik tamoyiliga yanada moslashtirilmoqda. Afv etish va jamoat birlashmalarining kafilligi ostida shaxslarni jazodan ozod qilishning mutlaqo yangi tizimi joriy etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jasliq qo'rg'onida joylashgan ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasining yopilishi muhim insonparvar voqelik bo'ldi. Qabul qilinayotgan chora-tadbirlar natijasida ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahkumlarning soni 2,5 baravar kamaydi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining (keyingi o'rnlarda — BMT) Inson huquqlari ta'limi sohasidagi butunjahon dasturida faol ishtirop etmoqda. «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish kontseptsiyasi» va BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha Milliy harakat dasturining ijrosi yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat organlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari aholi orasida umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlarini hurmat qilish va rioya qilish tamoyillarini ommalashtirishga, shuningdek, fuqarolarning huquqiy axborotdan foydalanishini ta'minlash jarayoniga keng jalb etilgan.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari va erkinliklari, fikr, so'z va vijdon erkinligini ta'minlashda jamiyat va davlat boshqaruvidagi keng qamrovli tub o'zgarishlar katta ahamiyatga ega. Parlament va jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmlari mustahkamlanmoqda. Vazirlar Mahkamasining parlament oldidagi mas'uliyati sezilarli darajada kuchaytirildi. «Elektron parlament» va «Elektron hukumat» tizimi rivojlantirilmoqda, davlat xizmatlarining turlarini kengaytirish, ularning imkoniyatlari, sifati va tezkorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinmoqda.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son farmoni bilan qabul qilindi va Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi inson huquqlarini himoya qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan ushbu Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi quyidagi yettita ustuvor yo'nalishda amalga oshirish belgilandi:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- adolatlilik siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida 2022 yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish tartibi joriy, qarori, harakati (harakatsizligi) noqonuniy emasligini ma'muriy sudda isbotlash majburiyatini, uni qabul qilgan mansabdor shaxsning o'ziga yuklash tartibiga amal qilinishi qat'iy ta'minlash, Xabeas korpus» institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish, Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro'yobga chiqarish, sudlar tizimida «yagona darcha» tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarni sudga taalluqliligidan qat'iy nazar, qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta'minlash tizimini joriy etish, sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g'ov va to'siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish, nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda sudyalar hamjamiyati organlarining rolini yanada

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

oshirish, sudyalarning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini keng joriy etish hamda sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishning oldini olish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni yaratish, sudyalar korpusini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, sud tizimidagi rahbarlik lavozimlariga tayinlashda saylanish va hisobdorlik kabi demokratik tamoyillarni joriy etish, sud tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish ishlarini olib borish kabi asosoiy vazifalar amalga oshirish belgilangan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) Feruza Eshmatova inson huquqlarini himoya qilish borasida ta'kidlaganlaridek, "Albatta, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) jamoasi Davlatimiz rahbari tomonidan Ombudsman zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizm doirasida jamoatchilik vakillari va OAV bilan birgalikda tergov izolyatori va jazoni ijro yetish muassasalariga monitoring tashriflarini amalga oshirib, ularning yakunlari yuzasidan parlamentga hamda boshqa mutasaddi vazirlik va idoralarga tahliliy ma'lumotlar taqdim yetib boradi. Shuningdek, vakil nomiga kelib tushgan murojaatlarning hududlar kesimidagi tahlili asosida mutasaddi organlar vakillari bilan birgalikda sayyor qabullar tashkil yetib, muammolarni joyida hal yetish amaliyoti kuchaytiriladi." . Xususan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili ofisiga 2021-yilda 18,7 mingdan ko'proq murojaat kelib tushganligi, bu bir yil avvalgi ko'rsatkichga (14,9 ming) qaraganda oshganligi, shundan 11257 tasi ko'rib chiqish uchun ish yurituviga olinganligi ham O'zbekistonda inson huquqlarining himoyasiga e'tibor naqadar yuqori darajada ekanligidan dalolat. Murojaatlarning asosiy qismini mulkka bo'lgan va mehnat huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy imtiyoz va nafaqalar olish kabi masalalar tashkil yetgan.

O'zbekiston o'zi tan olgan xalqaro shartnomaviy huquqiy majburiyatlarni, ayniqsa, inson huquqlariga oid xalqaro talablarni bajarish hamda ularni o'z qonunchilik tizimiga uyg'unlashtirish yo'lida o'ziga xos huquqiy taraqqiyotga erishdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat tomonidan xalqaro shartnomaviy majburiyatlarning qabul qilinishi va bajarilishining bosh huquqiy asosi, kafolati hisoblanadi.